

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA INSTITUTI



**"Zahiriddin Muhammad Bobur ilmiy-ijodiy merosining
jahon adabiyoti, ilm-fani va davlatchiligi tarixida
tutgan o'rni"
mavzusida onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**

**Международная научно-практическая онлайн
конференция на тему**

**"Научно-творческое наследие Захириддина Мухаммеда
Бабура и его роль в мировой литературе, науке и
истории государственности"**

**The online international scientific and practical
conference on the theme:**

**"The role of Babur's creative heritage in world literature
and his statehood development in history"**

CHIRCHIQ-2023

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

«Zahiriddin Muhammad Bobur ilmiy-ijodiy merosining jahon adabiyoti, ilm-fani va davlatchiligi tarixida tutgan o'rni» mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

*Международная научно-практическая онлайн конференция на тему
«Научно-творческое наследие Захириддина Мухаммеда Бабура и его роль в мировой литературе, науке и истории государственности»*

*The online international scientific and practical conference on the theme:
«The role of Babur's creative heritage in world literature and his statehood development in history»*

CHIRCHIQ – 2023

BOSH MUHARRIR

Shakarboy Janikulov

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent

MAS’UL MUHARRIR

Samariddin Qorayev

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti O‘quv-uslubiyat departamenti boshlig‘i, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIRIYATA’ZOLARI

Bahrom Izbasarov

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti O‘quv va tarbiyaviy ishlar bo‘yicha prorektori, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori

Iso Dusbayev

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Saodat Gayupova

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Yoshlar bilan ishslash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i

Otabek Yo‘ldoshev

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Tillar va maktabgacha ta’lim yo‘nalishi rahbari, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Jummagul Abduraxmanova

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar yo‘nalishi rahbari, tarix fanlari nomzodi

Ikrom Qodirov

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Pedagogika fanlari yo‘nalishi rahbari

Kurbanali Ruziyev

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari yo‘nalishi rahbari

Maftuna Qurbanova

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Pedagogika fanlari yo‘nalishi dotsenti v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Anora Temirova

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Tillar va maktabgacha ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchisi

Rahimberdi Ayatov

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Tillar va maktabgacha ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchisi

Saida Mumindjanova

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Tillar va maktabgacha ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchisi

Muxarram Mamatova

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti O‘quv-uslubiyat departamenti uslubchisi

Sherzod Usmonov

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti O‘quv-uslubiyat departamenti uslubchisi

MUSAHHIH

Akmal Abdullayev

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Tillar va maktabgacha ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchisi

TO‘PLAMNI TAYYORLOVCHI

Nursulton Shayxislamov

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti O‘quv-uslubiyat departamenti o‘quv ishlari bo‘yicha inspektor

SO‘Z BOSHI

Fevral oyida mamlakatimiz ziyorilar uchun alohida e'tiborga molik ikkita sana bor. Bular – 9-fevral so‘z mulkining sultoni mir Alisher Navoiy hamda 14-fevral – shoh va shoir, buyuk sarkarda, boburiylar sulolasiga asoschisi Zahiriddin Muhammad Boburning tavallud ayyomlaridir.

Har yili ta’lim tizimining barcha bosqichlarida, madaniy-ma’rifiy muassasalarda ushbu qutlug’ ikki sana o‘ziga xos tarzda nishonlanib kelinadi. Biroq, bu yil birinchi sanani zarracha kansitmagan holda ikkinchi sanaga davlat va hukumat darajasida yana bir yangi e’tibor qaratildi – “Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi zahiriddin muhammad bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvarda PQ-20-sonli qarori qabul qilindi. Buning bir nechta sabablari bor. Jumladan,

- Jonajon Vatanimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichiga — Uchinchi Renessans davriga qadam qo‘yayotgan, hayotimizning barcha jahbalarida tub o‘zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda Bobur Mirzoning bebafo merosini chuqr o‘rganish va ommalashtirish bugungi kunda har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

- Buyuk ajdodimiz asarlarining milliy va umuminsoniy mohiyati, uning yosh avlod intellektual va ma’naviy salohiyatini oshirish, farzandlarimizni shu asosda Yangi O‘zbekiston buniyodkorlari etib tarbiyalash borasidagi ulkan o‘rni va ta’sirini keng targ’ib etish zaruriyatining ortganligidir.

Buyuk sulola asoschisi, sohibdevon sohir shoir, adabiyot nazariyotchisi, islam fiqhining yetuk bilimdoni, badiiy tarjimon, yangi yozuv (“Xatti Boburiy”) kashfiyotchisi, qomusiy asar “Boburnoma” muallifi, shariatpanoh shoir, fidoyi ota va yana ko‘plab ulug’ insoniy fazilatlar egasi bo‘lgan bu zot haqida dunyoning ko‘plab taniqli insonlari o‘zlarining samimiyatga yo‘g‘rilgan fikrlarini aytganlar. Masalan, Hindistonning donishmand farzandi, buyuk davlat arbobi Javohirla’l Neru o‘zining «Hindistonning ochilishi» va «Jahon tarixiga bir nazar» asarlarida Zahiriddin Muhammad Bobur haqida samimiyatga to‘liq ushbu fikrlarni izhor etgan: «Bobur — dilbar shaxs. Uyg‘onish davri hukmdorining haqiqiy namunasidir. U mard va tadbirkor odam bo‘lgan. Bobur o‘ta madaniyatli va jozibali insonlar orasida eng yetuk insonlardan biri edi. U mazhabparastlik kabi cheklanishdan va mutaassiblikdan yiroq edi... Bobur san’at va, ayniqsa, adabiyotni sevardi». Ingliz tarixchisi Eduard Holden, avvalo, Boburni mashhur Yuliy Sezar bilan qiyoslashni lozim topadi: «Bobur fe’l-atvoriga ko‘ra Sezarga qaraganda sevishga arzigelikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo‘yilgan». Zahiriddin Muhammad Boburning bolalik va o‘smirlilik yillari

haqida roman yozgan «Boburnoma»ning ingliz tarjimoni Uilyam Erskin Boburni Osiyo podshohlariga qiyosan shunday baholaydi: «Saxovati va mardligi, iste'dodi, ilm-fan, san'atga muhabbatи va ular bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi».

Mana shunday e'tiroflarga sazovor bo‘lgan buyuk vatandoshimizning boy ma’naviy merosini yanada kengroq targ‘ib qilish borasida yuqoridagi qaror ko‘rsatmasi o‘laroq, biz – ziyolilarning oldimizga bir qancha vazifalar qo‘yildi. Bobur Mirzo merosiga mansub qo‘lyozma, qadimiylar, san’at asarlari va boshqa madaniy boyliklarni restavratsiya qilish, ularni ishchonchli darajada saqlash uchun zarur sharoit yaratish, xorijiy mamlakatlarda saqlanayotgan Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, ilmiy-ijodiy merosi hamda u yashagan davrga oid noyob qo‘lyozma asarlar va boshqa madaniy boyliklarni aniqlash, ularning nuxxalarini O‘zbekistonga olib kelish va tadqiq qilishni davom ettirish, Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy-ijodiy merosini, davlatchilik va sarkardalik faoliyatini keng o‘rganish maqsadida xalqaro miqyosda ilmiy izlanishlar olib borish va ularning natijalarini e’lon qilish, yangi ilmiy, badiiy-publisistik asarlar yaratish, Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan yuqori sifatli media mahsulotlar hamda audiovizual asarlar yaratish, ularni mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish, Internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng targ‘ib qilish kabilar shular jumlasidadir.

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti ilmiy jamoasi tomonidan tashkil etilgan bugungi tashkil etilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ham ushbu qarorda belgilangan vazifalar ijrosi yo‘lidagi bir debochadir.

O‘yaymanki, ushbu ezgu ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar turkumi yangicha formatlarda mamlakatimiz va jahon madaniy ziyoli jamoasi tomonidan keng ko‘lamda davom ettiriladi.

Shakarboy Janikulov
*Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti rektori,
texnika fanlari nomzodi, dotsent*

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR – BUYUK SHOH VA SHOIR

*Sulaymanova Shoxsanam Absamatovna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Jahon tarixi kafedrasи katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada Zahiriddin Muhammad Baburning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida va o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos mavqeini egallaganligi haqida fikrlar bildirilgan.

Аннотация: В статье выражено мнение о том, что Захириддин Мухаммад Бабур занимает особое место в общественно-политической жизни нашей страны и в истории узбекской литературы.

Abstract: The article expresses the opinion that Zahiriddin Muhammad Babur has a special place in the socio-political life of our country and in the history of Uzbek literature.

Kalit so'zlar: mumtoz, sarkarda, hukmdor, obodonchilik, muhtasham, donishmand, mahorat.

Ключевые слова: классический, полководец, правитель, благоустройство, величественный, мудрый, мастерство.

Keywords: classic, commander, ruler, beautification, magnificent, wise, kill.

Xalqimizning abadiyatga dahldor buyuk farzandi sifatida bu yil tavalludining 540 yilligi nishonlanayotgan Zahiriddin Muhammad Bobur mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayoti va o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos mavqega ega. Jahon tarixida Bobur kabi shaxsiy barkamol, yuksak iqtidor va fazilatlar sohibi bo'lgan kishilar juda kam uchraydi.

Biz Bobur timsolida – buyuk shoh, mahoratlari sarkarda, mumtoz shoir, nazariyotchi adabiyotshunos, fiqhshunos, tilshunos, san'atshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni kabi ko'p qirrali faoliyat va ijod sohibini ko'ramiz. Birgina "Boburnoma" asarining o'zi uning yigirmadan ortiq sohalar bilimdoni ekanligini yaqqol namoyon etadi.

Bobur birinchi navbatda, shoh, Boburiylar sulolasining asoschisidir. U podshoh sifatida lashkar tortib shohlarga xos mag'lubiyatlarning achchiq alamlariyu zafarlarning ulug'vor nashidalarini surishni ko'p marotaba o'z boshidan kechirdi. Samarqandda Shayboniyxonadan yengilgach Kobulni egallaganidan so'ng, o'sha vaqtarda mayda rojaliklarni birlashtirib Hindiston hukmdoriga aylandi.

Shoh Bobur Hindistonda temuriylarga xos ulug' bunyodkorlik ishlarini olib bordi: muhtasham qasrlar qurish va eskilarini tiklash, ariq kanallar qazish, bog'-rog'lar

bunyod etish, adabiyot, ilm-fan rivojiga homiylik qilish, elniadolat bilan boshqarish singari fazilatlar keyinchalik Hindistonning buyuk farzandlari tomonidan haqli ravishda e’tirof etildi va ijobjiy baholandi. Hindistonning buyuk donishmand farzandi, davlat arbobi Javoharlal Neru o‘zining “Hindistonning kashf etilishi” va “Jahon tarixiga bir nazar” asarlarida Zahiriddin Muhammad Bobur haqida samimiyatga yo‘g‘rilgan quyidagi fikrlarni bildirgan: “Bobur dilbar shaxs. Uyg‘onish davri hukmdorining haqiqiy namunasidir. U mard va tadbirkor odam bo‘lgan”.

Buyuk tarixiy siymo sifatida Bobur shaxsi Yevropa va AQSH sharqshunos-tarixchi olimlari diqqat e’tiborini o‘ziga jalb etgan. Ingliz tarixchisi Eduard Holden avvalo Boburni mashhur Yuliy Sezar bilan qiyoslashni lozim topadi: “Bobur fe’l-atvoriga ko‘ra Sezarga qaraganda sevishga arziguilikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo‘yilgan”.

Zahiriddin Muhammad Boburning o‘smirlik yillari haqida roman yozgan “Boburnoma”ning ingliz tarjimoni Uilyam Eskin Boburni Osiyo podshohlariga qiyosan shunday baholaydi: “Saxovatli va mardligi, iste’dodi, ilm-fan va san’atga muhabbati , ular bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanishi jihatdan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi”.

Bobur devon tartib bergen shoir sifatida buyuk daho shoir Alisher Navoiyning yonida turadigan mumtoz so‘z san’atkori, shoir va adibdir. Shuni alohida qayd etish o‘rinliki, badiiy mahorat bobida biror o‘zbek shoh va shoiri Bobur bilan bellasha olmaydi.

O‘z yurtiga sodiqlik, vatanparvarlik Bobur shaxsida shunchalik kuchli namoyon bo‘ladiki, buyuk shoh Bobur endi ona yurti Andijondan yiroqlikni, garchi Hindiston taxti sohibi bo‘lsa ham, qismatdagi yuz qarolig‘, deb hisoblaydi:

Tole’ yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Hech bir shoir Vatandan yiroqlik fojeasini Boburchalik har tomonlama va ta’sirchan ifodalay olmagan bo‘lsa kerak.

Bobur jozibali mumtoz g‘azallar ijodkorigina emas, u ruboiy janrida ham o‘z shaxsiy uslubini namoyish eta olgan ulkan san’atkordir. O‘zbek mumtoz adabiyotining ruboiy janrida Boburning o‘rni alohidadir.

Falsafiy va tasavvufiy ruboichilikda Umar Xayyom fors adabiyotida peshvo bo‘lganidek, Bobur o‘zbek adabiyoti ruboichiligidagi ikki jihatdan: ruboilarining ko‘pligi va ruboiyga hasbi hol, ya’ni tarjimayi holga doir detallarni singdirgani bilan boshqa mumtoz shoirlarimizdan ustun turadi. Shunisi e’tiborliki, Bobur ruboilarining mavzulari g‘oyat xilma-xil. Falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy-ta’limiy, diniy-

tafvavvufiy, sevgi-muhabbat, do'stlik totuvlik, hayotga muhabbat, jo'mardlik va tantilik, yoru-diyor, nifoq va noittifoqlik, hayotdan to'yib ketish va dalli devonalik singari talqinlar ma'naviy teranligiyu tabiiyligi bilan o'quvchini mutolaaga moyil etadi.

Ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki, "Vaqoe'" ("Boburnoma") Bobur sarguzashtlarining voqeiy tarixiy lavhalaridan iborat bo'lsa, uning ruboiylari ana shu qomusiy asarga o'ziga xos ilovadir. Zотан "Boburnoma" voqealar bayoni bo'lsa, ruboiylar o'sha voqealar ishtirokchisi Boburning his-tuyg'ulari g'alayoni ifodasidir.

Bobur fiqh sohasiga doir asar ham yozgan. Fiqh musulmonchilik farz va sunnatlari haqidagi amaliy nizom ilmi, ya'ni qonunshunoslikdir. U bir umr shariatpanoh hukmdor bo'lib yashadi, shariatga amal qildi, sha'riy hukmlar berdi va fiqhga oid "Mubayyin" nomli asar yozdi. Ushbu kitobda muallif farzandlari bilishi zarur bo'lgan farz asoslarini (imon, namoz, ro'za, zakor, haj) o'tash masalalarini she'riy usulda butun mufassalligi bilan bayon etdi.

XVI asrgacha fiqhga oid asarlarning asosan arab va fors tillarida bitilganini inobatga olsak, el ustida turgan Boburning o'z millatdoshlari o'zbeklar tushunadigan tilda bunday asarlar yaratgani naqadar muhim va dolzarbligini yanada aniqroq tasavvur etish mumkin.

Bobur va Boburiylar sulolasiga Hindistonda buyuk davlat barpo qilish bilan bir qatorda, ushbu yurtda obodonchilik ishlarini olib borishgan va mamlakatda ilm-ma'rifatning yuksalishiga kata hissa qo'shishgan. Shuningdek, Bobur va uning avlodlari tomonidan Toj Mahal, Shoh Akbar maqbarasi, Agra va Dehlidagi qizil qal'alar kabi mahobatli me'moriy obidalar barpo etilganki, ular hozirda ham nafaqat hindistonliklarning, balki butun dunyodan tashrif buyuradigan sayyoohlarning sevimli maskanlari hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Z. Mashrabov, S. Shokarimov. "Asrlarni bo'ylagan Bobur". T., 1992
2. S. Jalilov. "Bobur va Andijon" T., 1993
3. Q. Kenja. "Hind sorig'a". T., 2000
4. X. Sultonov. "Boburiynoma" T., 1997

<i>Abdurrahman Güzel, Ali Fuat Bilkan</i>	58-64
BABÜRLÜ Kuzey HINDİSTANINDA ALİ ŞİR NEVÂYÎ TESİRİ	
<i>Амирова Сарвиноз Акмал кизи</i>	65-69
ЖИЗНЬ И ТВОРЧЕСТВА БАБУРА	
<i>Bozorova Dilnur Ravub qizi</i>	70-72
JAHON ADABIYOTI, ILM-FANI VA DAVLATCHILIGI TARIXIDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SIYMOSI	
<i>Gayipov Saidbek Xayrulla o'g'li</i>	73-75
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING HINDISTON TARIXIDA TUTGAN O'RNI	
<i>Gayubova Komila Anvarovna, Yulanova Nargiza Davlatovna</i>	76-80
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODINING XORIJDA O'RGANILISHI	
<i>Izbasarova Guljayna Baxtibay qizi</i>	81-83
JAHON ADABIYOTI, ILM-FANI VA DAVLATCHILIGI TARIXIDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SIYMOSI	
<i>Sh.B.Jumayeva</i>	84-86
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR BUNYOD ETGAN ZIYORATGOH TARIXI	
<i>Mo'ydinov Qodirjon Abdurasulovich</i>	87-89
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING HARBIY VATANPARVARLIK NUTQI	
<i>Sharipov Sardorbek Baxrom o'g'li, Samandarov Abbos Qodir o'g'li</i>	90-93
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA BOBURIYLARNING MEROSI	
<i>Sulaymanova Shoxsanam Absamatovna</i>	94-96
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR – BUYUK SHOH VA SHOIR	
<i>Toshtemirova Mahliyo Farhodovna</i>	97-99
BOBURIYLAR SULOLASINING DAVLAT BOSHQARUV SIYOSATI	
<i>Khaydarova A., Shukurova F.Kh.</i>	100-102
BABUR'S HERITAGE AND HIS ROLE IN THE FORMATION OF NATIONAL CULTURE	
<i>Zuhriddin Turkmanov</i>	103-105
JAHON ILM-FANI VA DAVLATCHILIGI TARIXIDA BOBUR SALTANATI SIYMOSI	
<i>Миралиева Диана Нұрмуханқызы, Жандос Абдазимович Байзаков</i>	106-108
ҚОРНЕКТІ МЕМЛЕКЕТ ҚАЙРАКЕРІ, ҒАЖАЙЫП ЖЫРЛАР ЖАЗЫП ҚАЛДЫРҒАН, ЛИРИК АҚЫН-ЗАХРИДДИН МҰХАММЕД БАБЫР	
<i>Усербай Байқабылов, Бақбергенова Роза Қожсабаевна</i>	109-114
ҒҰЛАМА-ҒАЛЫМ, АТАҚТЫ ТАРИХШЫ ЗАХИРИДДИН МҰХАММЕД БАБЫР	